


Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish, koronavirus pandemiyasi davrida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ehtiyojmand oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning daromadlarini izchil oshirib borish maqsadida:

2021 yilning 1 sentyabridan boshlab byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdori **1,1 barobarga oshirilsin.**

2021 yilning 1 sentyabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida:

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – **oyiga 822 000 so'm;**

bazaviy hisoblash miqdori – **oyiga 270 000 so'm;**

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – **oyiga 289 000 so'm;**

yoshga doir eng kam pensiyalar – **oyiga 565 000 so'm;**

bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa – **oyiga 622 000 so'm;**

zarur ish stajiga ega bo'Imagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa – **oyiga 440 000 so'm;**

ish staji to'liq bo'Imagan chog'dagi pensiyalarning eng kam miqdori qo'shimcha to'lovni hisobga olgan holda – **oyiga 440 000 so'm;**

belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan 623 000 so'mgacha pensiya oluvchilarning yoshga doir va nogironlik bo'yicha pensiyalari miqdori – **oyiga 623 000 so'm;**

1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, fashistlar konslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan shaxslarning eng kam pensiya miqdori ustamalarni inobatga olgan holda - **oyiga 2 750 000 so'm** etib belgilansin;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun pensiyaning eng kam miqdori - **oyiga 440 000 so'm** etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun amaldagi tartibga muvofiq pensiya to'lansin;

boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun nafaqa miqdori – **oyiga**

440 000 so'm va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun **165 000 so'mdan** qo'shilishi belgilansin.

Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqlari, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalarning oshirilishi bilan bog'liq xarajatlar **Davlat byudjeti va Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplansin.**

Ish beruvchilarga ish haqi miqdorlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'limgan holda to'lashni ta'minlab, ish haqi miqdorlarini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga muvofiq oshirish tavsiya etilsin.

Moliya vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ushbu Farmonning **maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2021 yil 1 sentyabrdan ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmonidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri **T.A. Ishmetov** belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini

muvofiglashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari
D.A. Kuchkarov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga **2021 yil 1 noyabrga** qadar axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Sh.Mirziyoyev

Toshkent shahri

17 avgust